

**TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA “GENDERLIK”  
XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLIB TA'LIM-TARBIYA BERISH**

**O'razaliyeva Sojida Tojiboy qizi**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
tyutor

**Ilesova Lazzat Asan qizi**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
MAT-21/5 guruh talabasi  
[ilesovalazzat102@gmail.com](mailto:ilesovalazzat102@gmail.com)

**Annotatsiya:** Jamiyat ravnaqi va istiqboli undagi ta'lim sohasining qanchalik rivojlanganligi bilan bog'liq. Bolalar maktabda bilim, ko'nikma va malakalarning dastlabki bosqichini turli darajada o'zlashtirishadi. Bunga sabab ularning o'ziga xosliklaridan biri – bosh miya yarimsharlari assimetriyasi tipining inson jinsiga bog'liqligidir. Shu sababli ham o'g'il va qiz bolalar turli darajada bilimlarni egallashadi.

**Kalit so'zlar:** Gender, gender farqlari, verbal, noverbal, xotira,

**Annotation:** The development and prospects of a society depend on the level of development of its education. Children acquire the initial stage of knowledge and skills at school at different levels.

**Keywords:** Gender gender differences verbal noverbal memory

Bolalarni maktabga tayyorlash, ularga ta'lim-tarbiya berish va yoshiga mos ravishda qiyin bo'lmagan birlamchi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga qaratilgan bo'lishi bilan birga, ularda nutq, tafakkur va axloqiy sifatlarini rivojlantirish bilan o'zaro uyg'unlikda amalga oshirilishini taqazo etadi. Chunki bu

bosqich bolalarni o‘ta murakkab psixikaga ega bo‘lgan insonga aylanayotgan davri bo‘lib, bu davrda ularning bilimlarni o‘zlashtirishi hamda bilish faolligi bir qator o‘ziga xosliklarga ega. Bu xosliklardan biri – yarimsharlar assimetriyasi tipi insonning jinsiga bog‘liq xususiyatlaridir. Bu fanda „insonning gender xususiyatlari” deb ataladi. Ingliz tilida „gender” tushunchasi „jins” degan ma’noni anglatadi. Tadqiqotchilar bolaning nutqi va tafakkurining rivojlanishida bosh miya yarimsharlari faoliyatining bola jinsiga ham bog‘liq ekanligini isbotlaganlar. Bola hayotining birinchi yillaridanoq uning xulqi va psixikasi uning jinsiga ham bog‘liqligi bilinadi. O‘g‘il va qiz bolalarda psixik jarayonlar turlicha kechadi. Ularning terisi, eshitish organlarining faoliyati, nutqining chiqishi va boshqa jarayonlar turlicha kechadi. Bosh miya yarimsharlarining o‘zaro aloqasiga ma’sul bo‘lgan qadoqsimon tanadagi nerv hujayralari ma’lumotlarni sintez qilish vazifasini bajaradi. Bu hujayralar soni qiz bolalarda o‘g‘il bolalarga qaraganda ko‘p bo‘ladi shuning uchun ham qizlar ma’lumotlarni sintez qilish jarayoni yaxshiroq amalga oshadi. Qizlarda verbal xotira hajmi va tafakkur o‘g‘il bolalardagiga nisbatan yuqoriroq bo‘lganligi sababli ularda verbal ta’lim nisbatan muvaffaqiyatli kechadi. O‘g‘il bolalar bosh miyasining o‘ng yarim shari yaxshi rivojlangan shuning uchun ular predmetlarning tarkibi va shakli to‘g‘risida ko‘rish va eshitish orqali olingan ma’lumotlar tahlili hamda abstrakt tafakkur uchun javob beradi. Menimcha bu xususiyatlarni o‘rganish va amalda qo‘llash faqat ta’lim muassasalarida emas balki oilada ham shu doirada ishlar olib borish lozim. Chunki oilada bola boshlang‘ich tarbiyani oladi.

**Ta’lim jarayonini tashkil etishda bolalarning jins xususiyatlarini hisobga olish.**

**O‘g‘il bolalarda:**

1. Vizual xotira ko‘rsatgichlarini hisobga olish (slyd, video ko‘rsatish orqali bilim berish).

2. Berilayotgan ma’lumotlarning sodd va osonroq shaklda aytish (chunki ma’lumotlar sintezi sekin kechadi).

3. Ularni izlanishga va faol tafakkur talab qiladigan topshiriqlarni berish.

4. Tanqid va etirozlarning qisqa va lo‘nda bo‘lishi (Emotsional zo‘riqishga bardosh bera olmaydilar).

#### **Qiz bolalarda:**

1. Verbal yani eshitib esda saqlash qobiliyati yuqori bo‘lganligi uchun ma‘lumotlarni maruza shaklida bayon qilish.

2. Berilayotgan ma‘lumotlar birmuncha qiyinroq bo‘lishi va amalga oshirish jarayonini oldin ketma-ketligini ko‘rib chiqishi lozim.

3. Tanbeh yoki etirozlarni bildirganda emotsional holatlarga alohida etibor berish lozim (chunki qattiq qo‘llik qizlar psixikasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi).

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki bolalarning bilim olishdagi tafovutlari jinsiga balki individual xususiyatlariga ham bog‘liq. Qizlarda ma‘lumotlar analiz-sintez jarayoni sekin kechishi ham mumkin. Yoki bo‘lmasa bazi o‘g‘il balalarda ham verbal xotira yaxshi rivojlangan bo‘lishi mumkin. Bunga sabab oilada ijtimoiy muhitning yaxshiligi va psixik jarayonlarning normada kechganligi. Shuni hisobga olgan holda har bir bolaning shaxsiy psixik rivojlanish bosqichlariga alohida e‘tibor berish lozim. Rivojlanishdan ortda qolmasliklari uchun.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. G‘ulomov J va boshqalar. Neyropedagogika/uslubiy qo‘llanma-Toshkent: TDPU, 2017 yil.

2. G‘ulomov J. Neyropedagogika: rivojlantirish asoslari „Pedagogika“ J., №4, -TDPU 2015 yil.

3. G‘ulomov J. R. O‘quvchilarni kasb –hunarga yo‘naltirishda ularning neyropedagogik xususiyatlarini hisobga olish/„Pedagogika“ J., 2017 yil.